


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belarusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Yakubova Matluba Tajiboevna SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDAGI BADIY AHAMIYATI.....	8
2. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI MA'NODOSH SO'ZLAR TAHLILI.....	17
3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI.....	25
4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI.....	31
5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	35
6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA.....	40
7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS.....	44
8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM.....	51
9. Ихтиёр Бабаназаров XII ACP XORAZM ILMIIY-ADABIY MUHOJIRIYATIDA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING TUTGAN UYRI.....	56
10. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI KO'P MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING ASARDAGI O'RNI.....	62
11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....	69
12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI.....	73
13. Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR.....	78

IQTISODIYOT

1. Karimova Madina

XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH.....83

2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna

STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI.....91

PEDAGOGIKA

1. Davletov Erkaboy Yusbovich

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....95

2. Usanova Zulfiya Bozorovna

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI...98

3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna

TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....102

PSIXOLOGIYA

1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura

SHAXS IJTIMOIIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....107

TARIX

1. Babajanova Nilufar Alisherovna

QUYI AMUDARYO TARIXIIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIIY TARAQQIIYOT SAHIFASI.....111

2. Bekchanov Doniyor

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI.....115

3. Tajiyeva Umida Rajabboevna

O'ZBEK XALQII MADANIYATIDA TABIIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI.....119

4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna

O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.....123

5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли

ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА.....127

6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.....132

7. Marimov Muzaffar Erkinovich XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG‘LIKNI SAQLASH SOHASI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR.....	137
8. Bekchanov Doniyor AVAZ O‘TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARI.....	141
9. Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li XORAZM VOHASI VA G‘ARBIY SO‘G‘D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARI.....	145
10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich QUR‘ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O‘RNI.....	149
11. Misrbekova Makhliyo THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA’S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...	155
12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich YANGI O‘ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O‘ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.....	161
13. Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna QADIMGI MARKAZIIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O‘LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI.....	167

IQTISODIYOT**Karimova Madina-**

Ma'mun universiteti Iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi

**XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY
XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670119>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Xorazm viloyatida kichik biznesni rivojlantirishning hududiy rivojlanish xususiyatlari, mavjud resurslar, infratuzilma holati, aholi bandligi va kichik biznesning holati tahlil qilinadi. Shuningdek, viloyat bo'yicha tadbirkorlik ko'nikmalari baholanadi va KPI tizimi asosida aniqlangan real rivojlanganlik darajasi multiplikatori orqali tadbirkorlik salohiyati aniqlanadi.

Kalit so'zlar: sanoat ishlab chiqarishi, hududiy rivojlanish, kichik biznes, innovatsiya, KPI, tadbirkorlik ko'nikmalari, Xorazm viloyati.

Karimova Madina-

Senior Lecturer at the Department of Economics, Mamun University

**REGIONAL CHARACTERISTICS OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT AND
ASSESSMENT OF ENTREPRENEURIAL SKILLS IN KHOREZM REGION****ABSTRACT**

This article analyzes the regional development characteristics of small business in the Khorezm region, including available resources, infrastructure conditions, employment levels, and the current state of small business. It also evaluates entrepreneurial skills across the region and determines the level of entrepreneurial potential using a multiplier based on the KPI system.

Keywords: industrial production, regional development, small business, innovation, KPI, entrepreneurial skills, Khorezm region.

Каримова Мадина-

Старший преподаватель кафедры экономики Маъмунского университета

**ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И
ОЦЕНКА ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ****АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются территориальные особенности развития малого бизнеса в Хорезмской области, анализируются имеющиеся ресурсы, состояние инфраструктуры, занятость населения и текущее состояние малого бизнеса. Также проводится оценка предпринимательских навыков в регионе, и на основе системы KPI с

использованием мультипликатора уровня фактического развития определяется предпринимательский потенциал.

Ключевые слова: промышленное производство, территориальное развитие, малый бизнес, инновации, KPI, предпринимательские навыки, Хорезмская область.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Jahon bo'ylab mintaqalarning sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini yaxshilashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Mintaqada sanoat ishlab chiqarishini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish, sanoat tarmoqlarida ish jarayonlarini boshqarishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish, malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirish, turli ta'lim va malaka darajasidagi xodimlar uchun ish joylarini yaratish, daromadlarni oshirish va turmush sharoitlarini yaxshilash, mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni kamaytirish, ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish va hududlarni kompleks rivojlantirish bilan bog'liq masalalar ilmiy tadqiqotlar asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Yangi O'zbekistonda mahalliy sharoitlarda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalari orasidagi tubdan farqlanishning oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada keyingi yillarda ham bir qator Prezident qaror va farmonlari imzolandi. Xususan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish” [2] vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish salohiyati darajalarining statistik ko'rsatkichlarini deskriptiv tahlil qilish orqali tabaqalashtirilgan hududlar hamda tarmoqlarni aniqlash, mintaqaning to'liq quvvat bilan ishlamayotgan hamda nafaol sanoat korxonalarida xususiy yorliqli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish orqali samaradorligini oshirish, mintaqada sanoatiga yangi innovatsion yechimlarni sanoat ishlab chiqarish salohiyatini yaxshilashga ta'sirini baholash, ekonometrik modellar ishlab chiqish asosida mintaqada sanoat tarmoqlari rivojlanish darajasini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlarining uzoq istiqboldagi prognoz variantlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini namoyon etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mintaqalarda eng katta muammolardan yana biri bu ishsizlik, buni mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ham hududlarga qilgan tashriflarida ta'kidlaydilar. “Xorazmda 200 ming aholining sharoiti juda og'ir. Shundan 73,5 mingga Xorazmda yashayapti. 130 mingga chet elda yuribdi. Xorazmning boshqa hududlarga nisbatan ahvoli og'ir bo'lib qolmoqda. Mana shu 200 ming aholining 130 mingini qaytarishimiz kerak” [4]. O'z o'rnida, yuqori darajadagi ishsizlik muammosini ijobiy hal qilishda ham sanoat ishlab chiqarish sohasi muhim sohalardan biri hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarishini hududlarda rivojlantirish orqali eng asosiysi – yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligi va daromadlarini ko'paytirish mumkin bo'ladi.

Xorazm viloyati sanoat tarmog'i respublikadagi yetakchi sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanmaydi. Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarni qayta ishlash, to'qimachilik va qurulish materiallari ishlab chiqarish kabi turli tarmoqlar bilan ajralib turadi. Mintaqada paxtani qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallarini ishlab chiqarish kabi sohalarda o'sish kuzatilmoqda. Biroq, cheklangan infratuzilma, bozorlarga kirish hamda texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilishdagi kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

Investitsiyalarni rag'batlantirish, infratuzilmani yaxshilash va malaka oshirish dasturlari orqali sanoatni rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha qilinishi kerak bo'lgan ishlar talaygina. Umuman olganda, sanoat bo'yicha ba'zi raqamlarda o'sish mavjud bo'lsa-da, Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarish quvvati va raqobatbardoshligini yanada oshirish bo'yicha doimiy sa'y-harakatlarni amalga oshirish zarur.

3.1.1-jadval


Xorazm viloyat sanoat ishlab chiqarishida tumanlarning ulushiga nisbatan, kichik biznesni egallagan qismi %da (2023-yil) [3]

Tumanlar	Sanoat ishlab chiqarishda hududlarning ulushi, % da	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi %da	Viloyat sanoat ishlab chiqarishida tumanlarning ulushiga nisbatan, kichik biznesni egallagan qismi %da
Urganch shahri	18,3	24,8	4,54
Tuproqqal'a	42,4	3,6	1,53
Xiva sh.	1,4	100	1,40
Qo'shko'pir	5,1	27,7	1,41
Xiva t	2,3	100	2,3
Yangiariq	2,9	100	2,9
Xazorasp	4,3	30,3	1,3
Yangibozor	3,5	51,8	1,81
Shovot	2,9	32,1	0,93
Bog'ot	3	48,6	1,45
Gurlan	5,2	34,2	1,78
Urganch	3,6	49,6	1,79
Xonqa	5,1	33,6	1,71

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, sanoatni rivojlantirishning asosiy maqsadi hududning sanoat salohiyatini yuksaltirish, shuningdek, raqobatbardosh mahsulotlarni shakllantirish asosida sanoat mahsulotlariga bo'lgan ichki talabni to'liq qondirish va tashqi bozorga chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiqdir:

- Mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlashga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni joylashtirish va rivojlantirish orqali sanoatni diversifikatsiya qilish;
- Mahalliy ahamiyatga molik sanoat ishlab chiqarishni mahalliy tashabbusga asoslangan loyihalarni aniqlash, tayyorlash, amalga oshirish va shu asosda aholi ehtiyojlarini to'liq qondirish orqali kengaytirish;
- Mintaqada sanoat ishlab chiqarishni hududiy sanoat klasterlari shaklida shakllantirish, qo'shilgan qiymat zanjiri asosida sanoat korxonalarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash;
- ilmiy-texnikaviy va ta'lim tizimlarini hamda yuqori texnologiyalarni rivojlantirishga ko'maklashuvchi korxonalar salohiyatini yanada rivojlantirish orqali innovatsiyalarga yo'naltirilgan, yuqori texnologiyali sanoat tuzilmasini shakllantirish uchun asosiy shart-sharoitlarni yaratish;
- mintaqaviy sanoatning keng ko'lamli "raqamli transformatsiya jarayonlarini" tahlil qilish uchun konseptual asosini yoritib berish, ilmiy tamoyillarni ishlab chiqish, raqamli mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda ularni ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llash.

Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi viloyatda mavjud salohiyat va imkoniyatlarga muvofiq kelmaydi. Bir tomondan, hududlar bo'yicha sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va joylashuvi muvozanatlashmagan bo'lsa, boshqa tomondan sanoat ishlab chiqarishining bir yoqlama, diversifikatsiyalashmagan tarmoq tarkibi (paxta tozalash, oziq-ovqat va yoqilg'i sanoatiga ixtisoslashuv) shakllangan. Shu jihatdan olib qaraganda Xorazm viloyati ko'proq mahalliy resurslardan foydalanish strategiyasiga ko'proq tayanishini ko'rishimiz mumkin (3.1.2-rasm).



3.1.2-rasm. Sanoat ishlab chiqarishda Xorazm viloyati hududlarining ulushlari bo'yicha tabaqalari (2018–2023-yillar)

Xorazm viloyati sanoatini rivojlantirishda quyidagi qiyosiy ustunliklarni ajratib ko'rsatish mumkin:

viloyatda meva-sabzavot, go'sht va sut mahsulotlari yetishtirish uchun yirik tabiiy va iqtisodiy resurslarning mavjudligi;

to'qimachilik va gilam to'qish yo'nalishlarini rivojlantirish uchun qimmatli xomashyo mavjudligi va arzonligi, bu borada tajribali va sifatli ishchi kuchi mavjudligi, ipakchilikda xomashyo va boy tajriba mavjudligi;

Yuqorida qayd etilgan qiyosiy ustunlik, chegaralovchi omillar va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning boshqa manbalari Xorazm viloyati sanoatining strategik yo'nalishini belgilashga asos bo'ladi.

Xorazm viloyatida kichik biznes strategik zonalarini shakllantirishda hududlarda tadbirkorlik mahoratini o'rganish maqsadida so'rovnoma o'tkazildi va respondentlarni umumiy soni 115 nafarni tashkil etdi, viloyatni barcha hududlari qamrab olingan:

Ko'pchilik (55 nafar) ishtirokchilar 18-25 yoshdagi guruhdan, bu yoshlar tadbirkorlik faoliyatida faol qatnashayotganini ko'rsatadi.

26-35 yoshdagi ishtirokchilar soni ham (38 nafar) sezilarli, bu yosh guruhning tadbirkorlikka qiziqish va imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Urganch shahri va tumanlaridan eng ko'p ishtirokchilar kelgan, shuningdek, boshqa hududlardan ham ishtirokchilar mavjud (Xiva, Hazorasp, Shovot tumanlari), bu esa mintaqaning turli hududlarida tadbirkorlik faoliyati qanchalik keng tarqalganligini ko'rsatadi.

Oliy ma'lumotli ishtirokchilar (81 nafar) soni yuqori, bu esa tadbirkorlar orasida yuqori bilim darajasi mavjudligini anglatadi.

Respondentlarni biznesdagi faoliyatiga nazar tashlasak :

Menejerlik pozitsiyasida ishlayotganlar (20 nafar) va yakka tadbirkorlar (15 nafar) ham mavjud, bu mintaqadagi biznes tizimi va tashkilotlarda ixtisoslashgan liderlik rollari mavjudligini ko'rsatadi.

Tadbirkorlik ko'nikmalarini bahaolash quydagicha natija berdi:

- Marketing va menejerlik qobiliyatlari (51 nafar) ko'pchilikda rivojlangan, bu biznesni boshqarish va bozorni o'rganish qobiliyatining ahamiyatini ta'kidlaydi.

• Iqtisodiy savodxonlik va huquqiy savodxonlik kabi ko'nikmalar ko'proq rivojlanishga ehtiyoj sezadi, chunki ularning soni nisbatan kam (13-31 nafar) bo'lib, bu sohalarida yanada chuqurroq bilimlar kerak.

• **Novatorlik va tavakkalchilik qobiliyatlari tahlillariga ko'ra**, Yangilikka intiluvchanlik (58 nafar) va mo'tadil tavakkalchilik sharoitida ishlay olish (81 nafar) ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, bu tadbirkorlarning innovatsion g'oyalar va samarali tavakkalchilikka tayyorligini ko'rsatadi. Ishtirokchilar orasida marketing, menejerlik, va innovatsion ko'nikmalar yaxshi rivojlangan. Biroq, iqtisodiy va huquqiy savodxonlik kabi ko'nikmalarni rivojlantirish zarurati mavjud.

• **Shaxsiy ko'nikmalar quydagi omillar orqali baholandi :**

Liderlik va shaxsiy fazilatlar:

• Shaxsiy fazilatlar (37 nafar) va liderlik sifatleri (55 nafar) ko'nikmalarining yuqori darajada ekanligi, tadbirkorlikda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan shaxsiy qobiliyatlarning rivojlanganligini ko'rsatadi.

Shaxslararo ko'nikmalar:

• Odamlarni tushunish va ishonitirish qobiliyati (39 nafar) yuqori darajada ekanligi, tadbirkorlarning kommunikatsiya va muzokaralar olib borishdagi muvaffaqiyatlarini ko'rsatadi.

Raqamli tadbirkorlik ko'nikmalari quydagicha baholanadi:

Raqamli texnologiyalar va marketing:

• Raqamli marketing va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari (40 nafar) ko'pchilikda mavjud, bu esa raqamli muhitda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishni bildiradi.

Raqamli kommunikatsiya va mahsulot boshqarish:

• Raqamli kommunikatsiya vositalarini (39 nafar) ishlata olish va raqamli tadbirkorlik ko'nikmalarini qo'llash (33 nafar) ko'rsatilgan, bu esa zamonaviy texnologiyalarni tadbirkorlikda qo'llash ko'nikmasining rivojlanishini bildiradi.

• Raqamli texnologiyalar va marketingga qiziqish katta, bu biznes faoliyatida raqamli vositalardan foydalanishning muhimligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, so'rovnoma natijalari mintaqadagi kichik bizneslarning raqamli va innovatsion rivojlanishga tayyorligini, shuningdek, ba'zi sohalarida chuqurroq bilimlar va ko'nikmalarni rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi.

Natijada tadbirkorlik qobiliyatini baholashning mustahkam, moslashuvchan va raqamli ko'nikmalaridan iborat bo'lgan *asosiy mezonlarini* KPI tizimiga “H”, “S”, “D” *lotin harflari* orqali belgilandi. Ular:

KPI(H) - Mustahkam tadbirkorlikko'nikmalarining asosiy mezon;

KPI(S) - Moslashuvchan tadbirkorlik ko'nikmalarining asosiy mezon;

KPI(D) - Raqamli tadbirkorlik ko'nikmalariga xos asosiy mezon (3.1.2-jadval).

3.1.2-jadval

Tadbirkorlik mahoratini KPI tizimi bo'yicha baholash jarayoni

Baholashnin g asosiy va quyi mezonlari	Tadbirkorlik mahoratning muhim indikatorlari (KPI)	Qo'yil- gan ball
1	2	3
H (Hardentreprenur skills) – Mustahkam tadbirkorlik ko'nikmalari		
<i>H1. Marketing mahorati</i>	KPI (H1.1).Bozor, xaridor va tovarni o'rgana olish.	2
	KPI (H1.2).Mijozlarga e'tibor qaratish va xaridorlarni maqsadli guruhlariga bo'lish (segmentlash) va tovarni o'rinlashtirish qobiliyati.	2

	KPI (H1.3).Sotishni ko'paytirish usullarini bilish.	2
	KPI(H1.4).Reklama tadbirlarning samaradorligini baholash va korxona brendini rivojlantirish.	2
	KPI (H1.5). Raqiblarni baholash usullariga ega bo'lish va narx strategiyalarini tanlay bilish.	2
<i>H2. Menejerlik san'ati</i>	KPI (H2.1). Tashkilotchilik qobiliyati	2
	KPI (H2.2).Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish qobiliyati.	2
	KPI (H2.3).Muvaffaqiyatga erishishni motivasiyalashtira bilish.	2
	KPI (H2.4). Rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish.	2
	KPI (H2.5).Xo'jalik yuritishning samarali usullarni bilish.	1
<i>H3. Novatorlik ko'nikmalari</i>	KPI (H3.1).Yangilikka intiluvchanlik.	1
	KPI(H3.2).Yangi mahsulot (xizmat) larni ishlab chiqish qobiliyatiga egalik.	1
	KPI (H3.3).Kitob o'qish, savol berish, kuzatib yurish va ilmiy tajribalar o'tkazib turishga moyilligi.	2
	KPI (H3.4). Ijodiy fikrlash qobiliyati va innovasion biznes-g'oyalarni qidirib topib, amalda qo'llash.	1
<i>H4. Tavakkal qilish qobiliyati</i>	KPI(H4.1).Mo'tadil tavakkalchilik sharoitida samarali ishlay olish	2
	KPI (H4.2).Biznes tavakkallarni kamaytirish va sug'urta qilish.	2
<i>H5. Iqtisodiy savodxonligi</i>	KPI (H5.1).Biznesga investisiyalarni jalb qilish.	2
	KPI (H5.2). Moliyaviy va soliq savodxonligi.	2
	KPI(H5.3).Mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.	1
	KPI(H5.4).Xarajatlarni pasaytirish va foyda olishni ta'minlash.	1
<i>H6. Huquqiy savodxonligi</i>	KPI (H6.1).Tadbirkorlik bo'yicha Qonun va Farmonlardan habardor bo'lish	2
	KPI (H6.2).Tadbirkorlik kodeksini bilish	2
	KPI (H6.3) Biznesda xalqaro huquqiy normalarni bilish	2
	KPI (H6.4) Bojxona qoidalarini bilish	2
“H” asosiy mezon bo'yicha ballar yig'indisi (0-40 ball hisobida):		2
S (Soft entrepreneur skills) - moslashuvchan tadbirkorlik ko'nikmalari		
<i>S1. Shaxsiy fazilatlar</i>	KPI(S1.1).Tashabbuskorlik va mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati.	2
	KPI(S1.2).Analitik fikrlash va ongining moslashuvchanligi.	2
	KPI (S1.3). O'ziga ishonch va o'z ishiga sadoqatlik.	2
	KPI (S1.4). Muvaffaqiyatga intilish va qat'iyatlilik.	2
	KPI (S1.5). Mehnatsevarlik va ishbilarmonlik.	2
<i>S2. Shaxslararo ko'nikmalar</i>	KPI (S2.1). Ishbilarmonlik maktublarini yoza bilish.	2
	KPI (S2.2).Odamlarni tushunish va ularni ishontirish qobiliyati.	2
	KPI (S2.3).Muzokaralar olib borishga moyillik.	2
	KPI(S2.4).Imkoniyatlarni ko'ra bilish va undan foydalanish.	2
	KPI (S2.5). Vaqtdan unumli foydalana olish.	2
<i>S3. Liderlik sifatlari</i>	KPI(S3.1).Tezkorlik bilan va samarali qaror qabul qilish qobiliyati.	2
	KPI (S3.2). Samarali muloqot qilish qobiliyati.	2
	KPI (S3.3). Aloqalarni o'rnatish qobiliyati.	2
	KPI(S3.4).Bozorlar holati haqida qimmatli ma'lumotlarni topish ko'nikmasi.	2
	KPI(S3.5).Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun istiqbolli imkoniyatlarni topish qobiliyati.	3

<i>“S” asosiy mezon bo'yicha ballar yig'indisi (0-30 ball hisobida):</i>		
D (Digital entrepreneur skills) - Raqamli tadbirkorlik ko'nikmalari		
<i>D1. Raqamli marketing mahorati</i>	KPI (D1.1). Onlay-tijorat bilan shug'ullana olish.	2
	KPI (D1.2). Mijozlarni jalb qilishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalana bilish.	2
	KPI (D1.3). Internet orqali reklama qilish ko'nikmalari.	2
	KPI (D1.4). Qidiruv tizimlarda marketing ko'nikmalari.	2
<i>D2. Raqamli tadbirkorlik ko'nikmalari</i>	KPI (D2.1). Raqamli kommunikasiya vositalari (elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, o'z veb-sayt) orqali raqamli muloqot qilish ko'nikmalari.	2
	KPI (D2.2). Raqamli loyiha va mahsulotlarni boshqarish.	2
	KPI (D2.3). Blokcheyn texnologiyasidan foydalana olish.	2
	KPI (D2.4). Dasturlash va veb-ilovalarni ishlab chiqish (Networking).	2
	KPI (D2.5). Raqamli dizayn va ma'lumotlarni vizualizatsiyalash.	2
<i>D3. Raqamli texnologiya- lardan tadbirkorlik faoliyatida foydalanish ko'nikmalari</i>	KPI (D3.1). Messenjer (Internet tarmog'i orqali xabarlarni zudlik bilan ayirboshlash dastur) larni ishlata bilish.	2
	KPI (D3.2). “Task-trekerlar” (vazifalarni osonroq, tezroq va samaraliroq belgilash va bajarishda yordam beradigan loyiha ishlarini avtomatizatsiyalash vositasi) dan foydalana bilish.	2
	KPI (D3.3). Excel dasturida ishlay olish va PowerPoint taqdimoti tayrlash ko'nikmasi.	2
	KPI (D3.4). Business Intelligence (BI)-vositalarini qo'llay olish.	2
	KPI (D3.5). Kiberxavfsizlik asoslarini bilish.	2
	KPI (D3.6). Katta ma'lumotlar (Big data) dan tadbirkorlik maqsadida foydalana olish.	2
<i>“D” asosiy mezon bo'yicha ballar yig'indisi (0-30 ball hisobida):</i>		2
“H”, “S” va “D” asosiy o'lchov mezonlari bo'yicha tadbirkorlik sub'ektlarining yig'ilgan jami ballari (0-100 ball hisobida):		

Tadbirkorlik qobiliyatini baholashning asosiy mezonlarini tavsiflovchi *quyi mezonlarini* KPI tizimida **sonlar** orqali ifodalandi:

KPI(H) - Mustahkam asosiy ko'nikmalarini 1dan 6 gacha bo'lgan sonlar bilan (KPI (H1). Marketing mahorati; KPI (H2). Menejerlik san'ati; KPI(H3). Novatorlik ko'nikmalari; KPI(H4). Tavakkal qilish qobiliyati; KPI(H5). Iqtisodiy savodxonligi; KPI(H6). Huquqiy savodxonligi) belgilab olindi.

KPI(S) – Moslashuvchan asosiy ko'nikmalarini 1dan 3 gacha bo'lgan sonlar bilan: (KPI(S1). Shaxsiy fazilatlar; KPI(S2). Shaxslararo ko'nikmalar; KPI(S3). Liderlik sifatleri) belgilab olindi.

KPI(D) – Raqamli asosiy ko'nikmalarini ham 1dan 3 gacha bo'lgan sonlar bilan (KPI(D1). Raqamli marketing mahorati; KPI(D2). Raqamli tadbirkorlik ko'nikmalari; KPI(D3). Raqamli texnologiyalardan tadbirkorlik faoliyatida foydalanish ko'nikmalari) belgilab olindi.

3.1.3-jadval

Kichik biznes tadbirkorlik ko'nikmalarini samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili

Ko'nikma	Yuqori samaradorlik ko'rsatkichi	O'rtacha samaradorlik	Kam samaradorlik
Marketing mahorati	Reklama tadbirlar samaradorligi (30)	Bozorni o'rganish (25)	Raqobatni baholash (9)
Menejerlik qobiliyatlari	Rejalashtirish (40)	Tashkilotchilik (37)	Qaror qabul qilish (10)
Novatorlik mahorati	Yangilikka intilish (58)	Ijodiy fikrlash (29)	Yangi mahsulotlar (10)

Tavakkalchilik qobiliyatlari	Moʻtadil tavakkalchilik (81)	-	-
Iqtisodiy savodxonlik	Mehnat unumdorligi (40)	Moliyaviy va soliq (31)	Investitsiya (22)
Huquqiy savodxonlik	Bojxona huquqlari (32)	Tadbirkorlik qonunlari (14)	-
Shaxsiy fazilatlar	Tashabbuskorlik (32)	Oʻziga ishonch (20)	Muvaffaqiyatga intilish (18)
Shaxslararo koʻnikmalar	Odamlarni tushunish (39)	Imkoniyatlardan foydalanish (30)	Vaqtdan unumli foydalana olish (23)
Liderlik sifatleri	Tezkorlik (30)	Samarali muloqot (21)	Bozor haqida ma'lumot (19)

XULOSA VA TAKILFLAR

Tadbirkorlik qobiliyatining KPI tizimida ekspert usulida toʻplangan umumiy ballari etalon bahosibilan qiyoslash evaziga tadbirkorlik qobiliyatini real rivojlanganlik darajasining multiplikatori quyidagi formula bilan hisoblash tavsiya etiladi:

$$R_{tq} = \frac{KPI(H) + KPI(S) + KPI(D)}{Etq}, (1)$$

Bu erda: **R_{tq}** – tadbirkorlik qobiliyatining real rivojlanganlik darajasi multiplikatori (koeffisient sifatida 0,0 dan 1,0 oraligʻida oʻlchanadi); **KPI(H)** -mustahkam tadbirkorlik koʻnikmalarining quyi mezonlarini tavsiflaydigan muhim mahorat indikatorlari (20 ta KPI ni baholash asosida maksimal 40 ballga teng yoki undan pastroq ballar oraligʻida ifodalanadi); **KPI(S)** - moslashuvchan tadbirkorlik koʻnikmalarining quyi mezonlarini tavsiflaydigan muhim mahorat indikatorlari (15 ta KPI ning baholash asosida maksimal 30 ballga teng yoki undan pastroq ballar oraligʻida ifodalanadi); **KPI(D)** - raqamli koʻnikmalarining qoʻyi mezonini tavsiflaydigan muhim mahorat indikatorlari (15 ta KPI ning baholash asosida maksimal 30 ballga teng yoki undan pastroq ballar oraligʻida ifodalanadi); **Etq** - tadbirkorlik qobiliyatini rivojlanganlik darajasining etalon indikatorlari (50 ta KPI ning eng yaxshi holatini 2 ball bilan, jami 100 ballga tenglashtirilgan holda miqdoriy ifodalanadi).

Tadbirkorlik qobiliyati real rivojlanganlik darajasi multiplikatori koeffisienti (**R_{tq}**) asosida biznes sub'ektlariga xos tadbirkorlik qobiliyatining rivojlanganlik holati quyidagi uchta sifat darajasi va unga mos ravishda tadbirkorning tegishli maqomidan biriga mos kelishi tanlab olinadi.

Tadbirkorlik koʻnikmalarining rivojlanishi ishtirokchilarning muvaffaqiyatli biznes yuritishiga yordam beradi va bu koʻnikmalarni oʻzlashtirish boʻyicha koʻplab tadbirkorlar faoliyat koʻrsatmoqda.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Karimova M.M Mintaqada kichik biznes strategik zonalarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish (Xorazm viloyati misolida) I.f.f.d (PhD) diss. avtoreferati, Urganch 2024
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” gi Farmoni. – www.lex.uz
3. <https://www.xorazmstat.uz> — Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti
4. 2020-yil 12-13 mart kunlari prezident Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrifi davomida soʻzlagan nutqidan.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000